



UDK:378.015.3:343.85

*Timur T. SHAMSHIMETOV,*

*Mustaqil tadqiqotchi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi*

*E-mail: timursamsimetrov@gmail.com*

*O'zMU professori, PhD A.Utamuradov taqrizi asosida*

## THE SOCIAL NECESSITY OF DEVELOPING LEGAL CULTURE AMONG STUDENT YOUTH

Annotation

This article analyzes the role of youth policy and higher education reforms implemented in Uzbekistan in shaping the legal culture of student youth. The study examines statistical indicators of offenses committed among students, the factors contributing to their occurrence, and preventive mechanisms from pedagogical and socio-legal perspectives. The research findings revealed that insufficient legal literacy, shortcomings in psychological support systems, the incomplete formation of academic integrity principles, and the influence of destructive information are the main risk factors. Furthermore, it is substantiated that reforms in the higher education system, particularly the credit-module system, anti-corruption mechanisms, and the improvement of youth support systems, contribute to reducing offenses among students.

**Key words:** Student youth, offense, prevention, legal culture, academic integrity, pedagogical approach, higher education, youth policy, corruption, upbringing.

## СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье анализируется роль реализуемой в Узбекистане молодежной политики и реформ системы высшего образования в формировании правовой культуры студенческой молодежи. В ходе исследования были изучены статистические показатели правонарушений среди студентов, факторы их возникновения, а также профилактические механизмы с педагогической и социально-правовой точек зрения. Результаты исследования показали, что недостаточный уровень правовой грамотности, проблемы в системе психологической поддержки, неполное формирование принципов академической добросовестности, а также влияние негативной информации являются основными факторами риска. Кроме того, обосновано, что реформы в системе высшего образования, в частности кредитно-модульная система, механизмы противодействия коррупции и совершенствование системы работы с молодежью, способствуют снижению уровня правонарушений.

**Ключевые слова:** Студенческая молодежь, правонарушение, профилактика, правовая культура, академическая добросовестность, педагогический подход, высшее образование, молодежная политика, коррупция, воспитание.

## TALABA-YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY ZARURIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati va oliy ta’lim tizimidagi islohotlarning talaba-yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida talaba-yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning statistik ko‘rsatkichlari, ularning kelib chiqish omillari hamda profilaktik mexanizmlari pedagogik va ijtimoiy-huquqiy nuqtai nazardan o‘rganilgan. Tadqiqot natijalarida huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimidagi kamchiliklar, akademik halollik tamoyillarining to‘liq shakllanmaganligi hamda salbiy axborot ta’siri asosiy xavf omillari sifatida aniqlangan. Shuningdek, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar, xususan kredit-modul tizimi, korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari va yoshlar bilan ishlash tizimining takomillashuvi huquqbuzarliklarning kamayishiga xizmat qilayotgani asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlari:** Talaba-yoshlar, huquqbuzarlik, profilaktika, huquqiy madaniyat, akademik halollik, pedagogik yondashuv, oliy ta’lim, yoshlar siyosati, korrupsiya, tarbiya.

**Kirish.** Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar masalasi har bir davlat taraqqiyotining strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi ko‘p jihatdan yosh avlodning intellektual salohiyati, huquqiy ongi, ma’naviy dunyoqarashi va fuqarolik pozitsiyasiga bog‘liqdir. Shu sababli dunyoning ko‘plab davlatlarida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta’minlash, sifatli ta’lim berish hamda turli salbiy illatlardan himoya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘ngi 7-8 yil davomida yoshlar masalasi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan yoshlar bandligini ta’minlash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, oliy

ta’lim qamrovini kengaytirish hamda yoshlarning huquqiy va ma’naviy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. “Yoshlar daftari”, “Besh muhim tashabbus”, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturlari, kredit-modul tizimining joriy qilinishi va korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarining kuchaytirilishi ana shunday amaliy ishlar jumlasidandir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sharqda yoshlarning ta’lim olishi ularning tarbiyasidan ajratilmaydi. Xususan, bu borada “Avesto” da ham alohida sharhlar mavjud. Sharq allomalari Kaykovus, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan ilmiy va didaktik manbalarda ham yoshlik davri va yoshlarni nazorat

qilish bo'yicha tavsiyalar ilgari surilgan. Oila va jamiyatda bola tarbiyasi, odob, axloq masalalari buyuk pedagoglar Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy asarlarining mohiyatini tashkil etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat bo'yicha "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 648 ming nafar ishsiz yoshning 283 ming nafari bandlik bilan ta'minlangan. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida 36 mingdan ortiq qo'shimcha to'garaklar tashkil etilib, 874 mingga yaqin yoshlar qamrab olingan. "Besh muhim tashabbus" doirasida ta'lim muassasalari va kutubxonalarga 97 mingta sport va san'at inventarlari hamda 562 mingta badiiy kitob yetkazib berilgan.

Mazkur islohotlar yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning ma'lum darajada kamayishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, yoshlar o'rtasida jinoyat sodir etish holatlari 14 foizga, voyaga yetmaganlar orasida esa 17 foizga kamaygan. Biroq shunga qaramay, talaba-yoshlar o'rtasida ayrim huquqbuzarlik va jinoyat holatlarining saqlanib qolayotgani muammoning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari nafaqat ta'lim beruvchi, balki yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi va huquqiy madaniyatini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu bois talaba-yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va huquqshunoslik fanlari kesishgan nuqtada turgan murakkab ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi talaba-yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning kelib chiqish omillarini pedagogik va ijtimoiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning oldini olish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Mazkur tadqiqot davomida ilmiy bilishning nazariy va empirik metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda pedagogik interpretatsiya usullari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida yoshlar siyosati va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimiga doir statistik ma'lumotlar, 2024–2025-yillarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlar, shuningdek ilmiy-pedagogik, psixologik va huquqiy adabiyotlar tahlil qilindi. Talabalar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning asosiy sabablarini aniqlash maqsadida analitik tahlil, kontent tahlil, qiyosiy-statistik tahlil hamda pedagogik kuzatuv metodlari qo'llanildi. Huquqbuzarliklarning oldini olishda pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash uchun oliy ta'lim tizimidagi islohotlar va talabalar muhitidagi o'zgarishlar o'zaro taqqoslandi. Tadqiqot davomida jinoyatchilik dinamikasi, huquqbuzarlik turlari va ularning pedagogik omillari kompleks tarzda o'rganildi. Tadqiqot obyekt sifatida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalari faoliyati olindi. Tadqiqot predmeti esa talaba-yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishning pedagogik va ijtimoiy-huquqiy mexanizmlaridan iborat bo'ldi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlillar natijasida talaba-yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar murakkab ijtimoiy-pedagogik omillar ta'sirida yuzaga kelishi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar talabalar orasida huquqbuzarlik sodir etilishining asosiy sabablari sifatida huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning sustligi, psixologik qo'llab-quvvatlash tizimidagi kamchiliklar, moddiy muammolar, salbiy tengdoshlar ta'siri, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi destruktiv axborotlar hamda akademik bosim va stress omillarini ko'rsatdi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida talabalar tomonidan jami 761 ta jinoyat holati qayd etilgan bo'lib, ulardan 7 tasi qotillik, 8 tasi nomusga tegish, 85 tasi tan jarohati yetkazish, 16 tasi og'ir shikast yetkazish, 33 tasi o'rtacha og'irlikdagi tan

jarohati, 36 tasi yengil tan jarohati va 11 tasi bosqinchilik holatlaridan iborat bo'lgan. 2025-yilning dastlabki 9 oyliq bo'yicha esa respublika miqyosida jami 487 nafar talaba jinoyat sodir etgani qayd etilgan bo'lib, ularning 303 nafari davlat OTMLari, 165 nafari nodavlat OTMLari va 19 nafari xorijiy OTMLar talabalaridir. Tahlillar davomida talabalar o'rtasida zo'rovonlik, o'zaro kelishmochilik, bezorilik, mulkiy jinoyatlar hamda akademik korrupsiya holatlari ko'proq uchrasini kuzatildi.

Tadqiqot natijalari talaba-yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning kelib chiqishi faqat huquqiy omillar bilan emas, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy muhit bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Ayniqsa, huquqiy savodxonlikning pastligi va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning sustligi talabalar orasida deviant xulq-atvor shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa oliy ta'lim tizimida faqat nazorat mexanizmlarini kuchaytirish emas, balki profilaktik-pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini anglatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida akademik korrupsiya va noqonuniy baholash holatlarining avvalgi yillarda tizimli muammo sifatida mavjud bo'lgani aniqlandi. 2018-yilda sobiq vazir Inomjon Majidov tomonidan oliy ta'limdagi korrupsion holatlar ochiq tanqid qilingan edi. Keyingi yillarda kredit-modul tizimi, elektron nazorat platformalari va korrupsiyaga qarshi mexanizmlarning joriy etilishi mazkur salbiy holatlarning kamayishiga xizmat qilgan. Biroq akademik halollik tamoyillariga to'liq amal qilinmasligi, psixologik xizmatlarning sustligi hamda talabalar bilan individual ishlash tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi hali ham dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, talaba-yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishda pedagogik profilaktika, huquqiy madaniyatni rivojlantirish, psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, mentorlik tizimini takomillashtirish va talabalarining ijtimoiy moslashuviga ko'maklashuvchi mexanizmlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tahlillar asosida huquqbuzarliklarning oldini olishda quyidagi pedagogik omillar muhim ekanini aniqlandi:

- Huquqiy tarbiyani kuchaytirish;
- Akademik halollik muhitini shakllantirish;
- Talabalar bilan individual pedagogik ishlash;
- Psixologik yordam xizmatlarini rivojlantirish;
- Talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish;
- Oila-mahalla-OTM hamkorligini kuchaytirish.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari talaba-yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi kompleks pedagogik va ijtimoiy-huquqiy yondashuvni talab qilishini ko'rsatdi. Talabalar orasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning asosiy sabablari huquqiy savodsizlik, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning sustligi, psixologik muammolar, salbiy axborot ta'siri va akademik halollik tamoyillarining yetarli shakllanmaganligi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan kredit-modul tizimi, korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari, yoshlar bilan ishlash tizimining takomillashuvi va huquqiy targ'ibot ishlari talaba-yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, quyidagi yo'nalishlarda tizimli ishlarni kuchaytirish zarur:

- huquqiy va ma'naviy tarbiyani rivojlantirish;
- akademik halollik muhitini mustahkamlash;
- psixologik xizmatlarni takomillashtirish;

xavf guruhidagi talabalar bilan individual ishlash;  
bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish;  
oila-mahalla-OTM hamkorligini kuchaytirish.

Mazkur choralar orqali talaba-yoshlarni huquqiy ongli,  
ma'naviy barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli va innovatsion  
tafakkurga ega shaxslar sifatida tarbiyalash mumkin bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Benson D., Charlton C. and Goodhart F. Acquaintance rape on campus: A literature review. – USA: College Health, 1992, - P. 157-164.
2. Нечаева Т.А. Профилактика преступлений в студенческой среде высших учебных заведений. Дис. ... канд. юрид. наук. - Ставрополь, 2002. - С. 184.
3. Karaketov Y., Usmonaliyev M. Jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminologik choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – B.36.
4. Cullen J, Jacob B, Levitt S. The effect of school choice on participants: evidence from randomized lotteries. – England: Econometrica, 2006. – P. 1191-1230.
5. Криминология: учебник для бакалавриата, специалитета и магистратуры / О. С. Капинус [и др.]; под общей редакцией О. С. Капинус. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2019.
6. Змановская, Е. В. Девиантология. Психология отклоняющегося поведения. - Москва : Академия, 2004. - С. 288.
7. Карпов А.В. Рефлексия – как высшая способность самооценки», А.В. Карпов, стр-6, Вестник КГУ., 2009.